

Buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi

Bugun **buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan konferensiya** bo'lib o'tdi. Tadbir davomida Navoiy ijodining bebaho merosi, uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi va umumbashariy ahamiyati haqida qimmatli ma'ruzalar qilindi.

Shuningdek, konferensiyada **Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi o'quvchilari o'z nutqlari bilan ishtirok etib**, tashrif buyurgan mehmonlar va ustozlar uchun ilmiy chiqishlar taqdim etdilar. Ularning chiqishlari Navoiy asarlarining chuqur ma'naviy va badiiy jihatlarini ochib berib, ijodiy va ilmiy tafakkurni yanada yuksaltirishga xizmat qildi. Ushbu tadbir buyuk alloma merosiga bo'lgan hurmat va e'tiborning yorqin ifodasi bo'ldi.















SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati